

JURNALISTLAR RISHTON TUMANI "QAYRAG' OCH" MFYDAGI JARAYONLAR BILAN TANISHISHDI

Rishton tumanida navbatdagi press-tur o'tkazildi. Mazkur tadbirda viloyatimizda faoliyat yuritayotgan jurnalist va ijtimoiy tarmoq faollari ishtirok etishdi.

Press-tur ishtirokchilari Rishton tumani "Qayrag'och" mahallasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdi.

Tumanimizda yerni zar bilib, tomorqasining har qarichidan unumli va samarali foydalananayotgan mirishkor dehqonlar juda ko'p. O'z navbatida issiqxona sharoitida dehqonchilik qilib, mo'maygina daromadga ega bo'lib, shu bilan birlgilikda xalqimiz dasturxonining to'kinligiga, bozorlarda narx-navoning barqarorligiga hissa qo'shayotgan mirishkorlar safi ham tobora kengaymoqda.

"Qayrag'och" mahallasida yashovchi har bir oila tomorqasidan mo'may daromad topib kelishmoqda.

Fuqarolar shaxsiy tomorqalarida sissiqxona tashkil etib, o'rtacha 100 mln so'm daromad qilishmoqda. Jurnalistlar ushbu mahalladagi bir necha xonadonda bo'lismish, jarayonlarni ko'zdan kechirishdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2024-03-06 14:42:02